

ARAB SEMANTIKASIDA MA'NO KO'CHISHI HODISASIDAGI MUAMMOLAR

PROBLEMS IN THE PHENOMENON OF MEANING TRANSFER IN ARABIC SEMANTICS

ПРОБЛЕМЫ ЯВЛЕНИЯ ПЕРЕНОСА СЛОВА В АРАБСКОЙ СЕМАНТИКЕ

Alijonova Nigora Alijon qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi 2-kurs talabasi

nigoraalijonova63@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu annotatsiya raqamlashtirish jarayonlarining arab tiliga, xususan, semantika sohasiga ta'siri keng yoritiladi. Arab tilidagi ma'nodoshlik, diakritikasiz yozuv, dialektal farqlar raqamli texnologiyalar bilan to'qnashuvda keltirib chiqaradigan semantik muammolar tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt vositalari arab tilida semantik anglashdagi kamchiliklari, noaniqliklari, badiiy ma'no qatlamlari va matn tahlilining murakkabligi keng ko'rib chiqiladi. Maqolada muammoning sabab va oqibatlari izohlanib, zamonaviy yechimlar ham taklif qilinadi.

Kalit so'zlar: lug'aviy ma'no, isti'ora, tashbih, metonimiya, sinonimiya, antonimiya, polisimiya, sun'iy intellekt.

Аннотация. В данной аннотации всесторонне освещается влияние процессов цифровизации на арабский язык, в частности на область семантики. Анализируются семантические проблемы, возникающие при столкновении цифровых технологий с арабской синонимией, письмом без огласовок и диалектальными различиями. Также подробно рассматриваются недостатки и неопределённости инструментов искусственного интеллекта в семантическом понимании арабского языка, сложность художественных смысловых слоёв и текстового анализа. В статье объясняются причины и последствия данных проблем и предлагаются современные решения.

Ключевые слова: лексическое значение, метафора, сравнение, метонимия, синонимия, антонимия, полисемия, искусственный интеллект.

Annotation. This annotation provides an extensive overview of the impact of digitization processes on the Arabic language, particularly on the field of semantics. It analyzes semantic challenges arising from synonymy in Arabic, writing without diacritics, and dialectal variation when confronted with digital technologies. The shortcomings and ambiguities of artificial intelligence tools in semantic interpretation of Arabic, the complexity of literary meaning layers, and text analysis are also thoroughly examined. The article explains the causes and consequences of these issues and proposes modern solutions.

Keywords: lexical meaning, metaphor, simile, metonymy, synonymy, antonymy, polysemy, artificial intelligence.

Tilning kommunaktiv mohiyati ma'no yetkazishga tayanadi. Bunda semantikaning o'zni alohida ahamiyatga ega. So'zning lug'aviy ma'nosi, kontekstdagi

talqin, ko'chma mazmuni, ma'no munosabatlari, sinonimiya, antonimiya, polisimiya – bularning barchasi semantika doirasidadir. Bugungi kunda tilni qayta ishlashning asosiy qismi raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan bir paytda semantik jarayonlarning to'g'ri talqin qilinishi yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Semantikaning nazariy asoslari

Semantika – til birliklarining mazmuniy tomoni va ma'no tizimini o'rganadigan bo'limdir. Uning asosiy vazifasi so'zlarning qanday ma'no bildirishini, ma'no o'zgarishini va kontekstning ushbu jarayonga qanday ta'sir qilishini tushuntirishdir. Ibn Jinniy Al-Hasais asarida ma'no va shaklning ajralmasligini ta'kidlab, har bir so'z o'z strukturasi orqali mazmun tashishini uqtiradi.

Lug'aviy va kontekstual ma'no

Lug'aviy ma'no – so'zning lug'atda aks etib turgan asosiy, barqaror ma'no. Kontekstual ma'no esa matn holatiga qarab o'zgaruvchi ma'no. Bunga misol tariqasida يَد (qo'l) so'zini keltirish mumkin:

كسيرة يده – uning qo'li sindirilgan.

بيده ساعده – o'z qo'li bilan yordam berdi.

Birinchi misolda lug'aviy, ikkinchisida esa kuch-quvvat ma'nosi ifodalangan.

Al-Jurjoniylar isti'orani ma'noning boshqa ma'no ustiga ko'chirilishi deb ta'riflab, misol keltiradi:

يقاتل أسداً رأيت – Men sher kabi jang qilayotgan kishini ko'rdim.

Ko'chma ma'no turlari

Isti'ora, tashbih, metonimiya, sinekdoxa – ma'noning kengayishi va obrazli shaklidir.

Tashbih-2 narsani, o'xshashlik orqali bog'lash. Ya'ni biror narsani boshqa narsaga solishtirish. Arab tilshunosligida tashbih balog'atning eng asosiy vositalaridan biri bo'lib, o'quvchida aniq tasvir uyg'otadi.

Metonimiya-bu bir narsani nomini unga yaqin bo'lgan yoki unga tegishli bo'lgan narsa nomi bilan atashdir. Tilshunos olimlar metonimiyani majaz mursal (المرسل المجاز) deb atashadi. AlhZamaxshariy va Al-Jurjoniylar metonimiyani matnni bezatuvchi vosita sifatida qarashgan.

Sinekdoxa - bu qismni aytib butunni anglatish. Masalan: Arablar shaharni egallashdi. Ushbu jumlada arablar so'zi orqali arab askarlariga nisbatan ma'no ifodalanyapti. Sinekdoxa ham matnning tasviriyligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Semantikaning yana bir asosiy ilmlaridan: sinonim, antonim va polisimiyadir. Til tizimida sinonimlar ma'no nozikliklarini yaratadi, anonimlar qarama-qarshiliklar asosida mantiqiy kategoriyalarni shakllantiradi.

Polisimiya esa bitta so'zning bir nechta ma'no qatlamiga ega bo'lishidir.

Arab tilida sinonimlar qadimdan mavjud bo'lib, ular tilning boyligini ifodalovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Antonimlar qarama-qarshi ma'nodagi so'zlar bo'lib, arab tilida semantik tizimning muhim qismini tashkil qiladi.

Ibn Qutaybaning o'z ijodiy faoliyati orqali arab tilida polisimiya keng qamrovli tarmoq ekanini ko'rishimiz mumkin. Masalan عين so'zi 20dan ortiq ma'noga ega bo'lib, uni faqat kontekstga ko'ra farqlab olish mumkin

Arab tilshunosligida ma'no masalasi juda erta shakllangan. Buning sababi Qur'on matnining ma'nosini to'g'ri anglash va sharhlash zarurati edi.

Ibn Jinniy til tizimida tovush, shakl va ma'no o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ochib bergan.

Zamaxshariy esa ko'chma ma'no, balog'at va semantik nozikliklarni amaliy tahlil qilishda keng qo'llanadigan asarlar yozgan.

Ushbu allomalar tomonidan yaratilgan semantik prinsiplar hozirgi til texnologiyalarida ham metodologik asos bo'lib qolmoqda, lekin raqamlashtirish jarayoni semantika sohasida yangi ilmiy muammolarni yuzaga keltirdi: ko'p ma'nolikni avtomatik tahlil qilish, semantik korpus yetishmovchiligi, AI modellarining ma'noni noto'g'ri talqin qilishi va boshqalar. Ushbu muammolar o'z navbatida arab tilshunosligiga putur yetkazishini oldini olish uchun ilmiy izlanishlar, katta semantik ma'lumotlar bazasini yaratish, zamonaviy algoritmlarni ishlab chiqishni talab etadi.

Elektron korpuslarda polisimiy muammosi

Arab tilida so'z bir necha ma'noga ega: عين so'zi ko'z, buloq, mansab, oltin koni va hakozi. Raqamli korpuslar buning ma'nosini anglab ololmaydi. Bu esa tarjima, matn tahlili, sharhlash kabi jarayonlarda jiddiy muammoga sabab bo'ladi.

Keyingi yana bir muhim masalalardan biri diakritik belgilarisiz matn. Arab matnlarining katta qismi harakatlarsiz yoziladi: علم، كتاب، طالب va hakozi.

Sun'iy intellekt modellari esa harakatsiz matnlarga so'zlarni ajratolmay, semantik xatoga yo'l qo'yadi. Bu esa sintaktik tahlil va talaffuzda muammolarga sabab bo'ladi.

Raqamli jarayondagi eng muhim masalalardan yana biri tarjima tizimidagi xatoliklar: Google translate, Chatgpt, NLP modellari isti'ora, kinoya, balog'at, tashbihdagi mohiyatni to'g'ri anglay olmaydi. Diniy-madaniy matnlardagi maxsus terminlarni noto'g'ri tarjima qiladi. Buning natijasida arab tilidagi matnlarning asl ma'nosiga, so'zlarning go'zalligiga putur yetkazadi.

Arab tili majoziy ma'noga boy til. Arab tilida semantik bog'lanishlar yirik bazalarda to'liq ishlab chiqilmagan. Bu matnni chuqur talqin qilish imkonini pasaytiradi.

Quyida e'tirof etilgan masalalar til sha'niga hurmatsizlik bo'ladi. Shuning uchun bu muammolarni oldini olish maqsadida faol tadbirlar ko'rish lozim. Bartaraf etish uchun keng qamrovli arabcha korpuslar yaratish, harakat belgilari bilan boyitilgan ma'lumotlar bazasini kengaytirish, dialektning alohida semantik modellari ustida ishlash kerak. Sun'iy intellektga kontekstual ma'lumotlar bilan to'ldirilgan o'quv to'plamini taqdim etish ham samarali ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibn Qutayba, 'Abd Allāh ibn Muslim. Ta'wīl Mushkil al-Qur'ān / مشکل تأويل القرآن. — 2-chi nashr, Qohira: Dār al-Turāt, 1973.
2. 'Abd al-Qāhir al-Jurjānī. Dalā'il al-I'jāz fī al-Qur'ān / الإعجاز دلائل. — Qohira: Dār al-Khānjī, 2004.
3. 'Alī ibn Muḥammad al-Jurjānī. Al-Ta'rīfāt (The Definitions) / التعريفات. — Bayrut: Dār al-Kotob al-Ilmiyyah, 1983.

4. Abū al-Qāsim Maḥmūd ibn ‘Umar al-Zamakhsharī. al-Kashshāf ‘an Ḥaqā’iq at-Tanzīl / التنزيل حقائق عن الكشف. — Bayrut: Dār al-Kitāb al-‘Arabī (3-chi nashr, 1407 H / muqarrar), nashr yili: 1986 (yoki 1407 H).

5. Sa‘d al-Dīn Mas‘ūd ibn ‘Umar al-Taftāzānī. Al-Mutawwal fī ‘Ilm al-Ma‘ānī wa al-Bayān a

6. Jo‘rabekov, Diyora Jo‘raxon qizi (2024). Arab tilining semantik boyligi: sinonimlar va antonimlar tizimi. — (Toshkent, 2024) — maqola/ilmiy ish, nashriyot ma’lumotlari: 2024.